


ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

*(Магистратура талабалари ва ёш олимларнинг
илмий мақолалар тўплами)*

**“Халқ билан мулоқот ва инсон
манфаатлари” йилига бағишланади**



Бухоро - 2017

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА

МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ХАЛҚ БИЛАН МУЛОҚОТ ВА ИНСОН
МАНФААТЛАРИ” ЙИЛИГА БАҒИШЛАНАДИ**

ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

**(Магистратура талабалари ва ёш олимларнинг
илмий мақолалар тўплами)**

“Дурдона” нашриёти

Бухоро, 2017

bo'lishi mumkin.

Akademik litseylarda kimyo fanlarini o'qitishda modulli texnologiyalardan foydalanilsa, o'quvchilarning egallayotgan bilimlari barqaror bo'ladi, ongli ravishda mustaqil xulosalar chiqaradi. Bu jarayon shaxsning rivojlanishiga, mustaqil bilim olishiga yo'naltiruvchanlik funksiyasini bajarishga yordam beradi, o'quvchilarda uzluksiz o'z ustida ishlash ko'nikmasi shakllanadi, ta'lim samaradorligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan o'qitish metodlarini to'g'ri tanlashi va dars bosqichlarida o'rinli foydalana olish, birinchidan, ta'lim jarayoni maqsadiga erishishini ta'minlaydi, ikkinchidan, o'quvchilarning samarali bilim olishiga erishiladi. Pirovard natijada ta'lim jarayonining asosiy maqsadi bo'lgan ta'lim samaradorligining oshishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. "Sharq", 1998. 63 b.

2. Sh.M. Mirzayev, T.B. Boltayev, B.B. Qobilov. Modul texnologiyasi-ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2015. №3, 160-163-betlar

3. M.M. Abdulxayeva, O. M. Mardonov. Kimyo. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik. T.; O'zbekiston, 2002, 672 b.

KRISTOFER MARLONING RUHINI IBLISGA SOTGAN QAHRAMONI FAUST FOJEASI

M.T. Pulatova BuxDU magistranti

Ilmiy rahbar f.f.d. Baqoeva M.K.

Kristofer Marlo 1564-1593 yillarda yashab ijod etgan buyuk ingliz dramaturgi bo'lib, uning "Buyuk Temurlang" ("Tamburlaine the Great"), "Doktor Faustning fojeaviy tarixi" ("The Tragical History of Dr. Faustus"), "Maltalik Yahudiy" ("The Jew of Malta"), "Eduard II" kabi qator asarlari hanuzgacha katta qiziqish bilan o'qiladi.

Bir vaqtning o'zida ham tarixiy, ham afsonaviy hisoblangan Faust shaxsi atrofida juda ko'p asotirlar yuradi. Iogan Faust (1480-1540) bilimi kuchli doktor sifatida ko'pgina mamlakatlarda dong

taratgan va shu bilan bir qatorda sehr-jodu va afsungarlik bilan shug'ullanganligi ma'lum.[2.179] Faust haqida qalam yuritgan yozuvchilar orasida Kristofer Marloning alohida o'rni bor.

Kristofer Marloning "Doktor Faustning fojeaviy tarixi" tragediyasi insonning ilmiy salohiyati, uning dunyoviy bilim doirasi naqadar keng va chuqur bo'lishi mumkinligi haqidagi asardir. Bu asar qahramonining yaxshilikka intilishlari haqida o'zbek adabiyotshunosi M.Xolbekov: "... "Doktor Faustning fojeaviy tarixi" tragediyasida donishmand Faust haqida xalq rivoyatlari mazmunini renessans g'oyalariga monand qayta yaratib sahnaga olib chiqdi. Pyesada doktor Faust ilmiy afsun kuchi bilan tabiatni o'z izmiga bo'ysundirib, undagi boyliklardan xalq turmushini farovonlashtirish maqsadida foydalanmoqni niyat qilib qo'yadi", deb yozadi. [5.74]

Asar sahnaga xorning kirib kelishi bilan boshlanadi va xor bosh qahramon Faustning tarixi haqida ma'lumot berib, uning qayerda tug'ilganligi, qayerlarda o'qiganligi va doktorlik unvoniga sazovor bo'lgach, sehr-joduga qiziqib qolganligi haqida so'zlaydi:

CHORUS

And speak for Faustus in his infancy.
Now is he born of parents base of stock,
In Germany, within a town call'd Rhodes:
At riper years, to Wittenberg he went,
Whereas his kinsmen chiefly brought him up.
So much he profits in divinity,
That shortly he was grac'd with doctor's name,

.....
He surfeits upon cursed necromancy;
Nothing so sweet as magic is to him.[4.1]

Yuqoridagi misralarda aytilishicha, Faust Germaniyaning Roda shahrida tug'ilgan va Vinttenbergda ta'lim olgan. Doktorlik unvonini olgach, ilm bilangina chegaralanmay, sehr-joduga qiziqib qolgan va oxir-oqibatda shayton izmiga kirib, nekromantiya bilan shug'ullana boshlagan.

Keyingi sahnada Faust o'z xonasida ilm-fanda qanchalik yutuqqa erishmasin, u baribir oddiy inson ekanligi va ko'p hollarda kuchsizligicha qolishi haqida o'y surib turganicha tasvirlangan:

FAUSTUS

Bene disserere est finis logices.
Is, to dispute well, logic's chiefest end?
Affords this art no greater miracle?
Then read no more; thou hast attain'd that end:
A greater subject fitteth Faustus' wit:
Bid Economy farewell, and Galen come:
Be a physician, Faustus; heap up gold,
And be eterniz'd for some wondrous cure:
Summum bonum medicinæ sanitas,
The end of physic is our body's health. [4.2]

Yuqoridagi misralarda Faust mantiq ilmidan ko'ngli to'lmaganligi, tibbiyot ham ba'zan barcha dardlarga davol topolmasligi, insonlarga boqiy umr bera olmasligi va o'lganlarni tiriltira olmasligidan noliydi.

Huquqshunoslik ham ziddiyatlarga to'laligi va yerdagi qonunlarning safsatabozlik ekanligi haqida o'ylaydi, hattoki ilohiyotshunoslik ilmi ham uning barcha savollariga to'liq javob bera olmaydi.

Ilm bobida o'zining ezgu niyatlariga yetolmagan Faust sehr-jodu va afsungarlikka qiziqqa boshlaydi. Qahramonning o'ng yelkasidagi farishta unga jodugarlik to'g'risidagi kitoblarni o'qimaslikni, ular tufayli Faust Xudoning qahriga uchrashi mumkinligini aytib, uni bu yo'ldan qaytarishga urinadi.

GOOD ANGEL

O, Faustus, lay that damned book aside,
And gaze not on it, lest it tempt thy soul,
And heap God's heavy wrath upon thy head! [4.4]

Chap yelkasidagi shayton esa uni ushbu kitoblar jilosi bilan mast bo'lishga va dunyo haqiqatlarini anglashga chorlaydi.

EVIL ANGEL

Go forward, Faustus, in that famous art
Wherein all Nature's treasure is contain'd:
Be thou on earth as Jove is in the sky,
Lord and commander of these elements.
Faustus; think of honour and of wealth. [4.4]

Aytish joizki, asarning aynan shu nuqtasida bosh qahramon

hayotini keskin o'zgartirgan voqea sodir bo'ladi, chunonkim u o'ng yelkasidagi farishtaning ogohlantirishiga emas, balkim chap yelkasidagi shaytonga quloq solib, afsungarlik kitobidan Mefistofel ismli yovuz ruhni chorlaydi. O'z ismini mangulikka qoldirishni niyat qilgan Faust boylik, mashhurlik, shon-shuhratga ega bo'lish ilinjida hatto ruhini sotishdan ham toymaydi. Uning fikricha, u bemorlarni shunchaki davolashi emas, balki o'liklarni tiriltira olishi ham kerak.[1.1]

Astronomiya va geografiya ilmlarini o'rganish va mashhur Papa huzurida bo'lish maqsadida, bosh qahramon endilikda Rim tomon yo'l oladi. Ushbu va keyingi sayohatlari davomida o'liklar dunyosi bilan aloqa qila olgan, istalgan ruhni chaqirib hammani lol qoldirgan, ko'pgina voqealarga guvoh va sababchi bo'lgan Faust, shon-sharaf, boylik va maqto'vlar qurshovida qoladi. Dunyoning barcha burchagidagi shohu-gado Faust nomini tildan qo'ymaydi.

Asar tragediya janri qoidalaridan chekinmagan holda Faustning o'limi bilan yakunlanadi: azoblar bilan jon taslim qilgan Faust ruhini, u dunyoda yanada dahshatliroq qiynoqlarga duchor qilish uchun, iblis do'zaxga olib ketadi.

Sahna asarining bu tarzda tugashi tomoshabin qalbini ezadi, ruhiyatiga ta'sir etadi, undagi voqealarni qayta-qayta eslab, mushohada etishga undaydi.

Faustning fojeasi adabiy tanqidchilar, kitobxonlar tomonidan turlicha qabul etilib, turlicha talqin qilinadi. Ko'pchilik bu asarni dahriylikka undov deb tushunadi. Ammo biz kitobxon sifatida uni boshqacharoq talqin qilgan bo'lar edik. Faustning fojeasi shundaki, uning ilm bobidagi nafi ham, sehr-jodu bobidagi nafi ham chegara bilmaydi, unga shukronalik yetishmaydi. Aslida u buyuk olim, daho, ammo u bu bilan cheklanmay, sehr-joduga beriladi, o'lganlarni tiriltirmoqchi, ya'ni Parvardigor bilan tenglashmoqchi bo'ladi.

Xullas, Faust taqdiri kuchli ilm qudratiga ega bo'lgan, bilganlarini insoniyat farovonligiga, salomatligiga va boshqa ezgu tilaklarga sarf qilmoqchi bo'lgan, ammo bu sohadagi barcha intilishlari besamar ketgan va, natijada, ruhini iblisga sotishgacha borgan inson fojeasidir. Ushbu asar kitobxonga beqiyos ruhiy ta'sir ko'rsatadi, har bir ishni boshlashdan oldin uning natijasini ham o'ylash kerakligini o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Носовский Г.В., Фоменко А.Т.. Как было на самом деле. Доктор Фауст. Христос глазами антихриста. Корабль «Ваза»: АСТ; Москва; 2014.
2. Нюрнберг О. Легенда о докторе Фауста. Журнал «Партнер», №2 (77) 2004г. 179-183.
3. Шпис Иоганн. Легенда о докторе Иоганне Фаусте, великом и прославленном чародее, маге и обманщике, XVI века.
4. Christopher Marlowe. The Tragicall Historie of the Life and Death of Doctor Faustus. – London: Marshal. 1818. P 68.
5. Xolbekov M. Marlo va Shekspir: ikki adib taqdiri. «Xorijiy filologiya» jurnali. – Samarqand, 2014, №1, 73-80.

BUXORO MUZEYIDA SAQLANAYOTGAN RUS SAMOVARLARI TARIXIDAN

O'. Ravshanov BuxDU magistranti
B. Rizayev BuxDU tarix kafedراسи o'qituvchisi

Buxoro qadimdan o'zida turli sir-asrorlarni yashirib kelganligi va boy tarixga egaligi bilan tadqiqodchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Mana 90 yildan ziyod bo'ldiki, Buxoro muzey-qo'riqxonasi fondlarida 130 mingdan ziyod tarixiy ashyolar saqlab kelinmoqda. Bular orasida xorijiy mamlakatlardan (asosan, savdo orqali) keltirilgan buyumlar alohida qimmatga ega. Muzeyning metall fondida bugungi kunda 30 dan ziyod Rossiyaning turli shaharlarida ishlab chiqarilgan samovarlar saqlab kelinmoqda.

Samovarlarning shakli turlicha bo'lib, ular banka, rumka, shar, to'rtburchak, vaza, tuxumsimon, qorinsimon, noksimon, sholg'omsimon va boshqa ko'rinishlarda ishlangan. Ular nafaqat shakli, balki turli metall va qorishmalardan ishlanganligi bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Masalan samovarlarni tayyorlashda qizil mis (kolleksiyaning kata qismini tashkil etadi), jez, tompak, oq metall, kumush qoplamali galvanik - misdan ishlangan va yuza qismi kumush bilan qoplangan yoki nikel kabilar ishlatilgan.

XIX asrdayoq rus tilining izohli lug'atlarida samovar so'zi - suvni qaynatish uchun idish, misdan ishlangan va ichkari qismida qaynatish uchun turba joylashtirilgan. Samovorlar tarixi qarib ikki yarim asr oldindan boshlanadi. Bu samovarlar rus analiy-bezak

МУНДАРИЖА

	Сўз боши	3
Акратова Г.М., Арслонув Қ.П.	15-16 ёшдаги мактаб ўқувчилари ўртасида енгил атлетика спорт турига қизиқишни ошириш тамойиллари	5
Akramov I.I., Rasulov Z.	Dunyoning lisoniy manzarisini tasvirlashda iboralarning o'rnini	8
Abdullayev H.H., SHomurodov T.R.	Chorvachilik va parandachilikga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida biogaz ishlab chiqarish istiqbollari	12
Arabov U.H.	Qaror va farmoyishlar bazasini shakllantirishda axborot texnologiyalarining o'rnini, f9 dasturi.	14
Axmedov A., G'afurov K.H.	Texnologik jarayonlarni akt asosida boshqarishda dasturlar ishlab chiqish texnologiyasi	18
Bafayeva Z.KH., Artikova KH.T.	Physical and chemical properties of historically irrigated pasturable alluvial soils of the Bukhara oasis	23
Бафаева З.Х., Артикова Х.Т.	Экологическое состояние орошаемых почв Бухарского оазиса	26
Восиева Ш., Гадоева М.И.	Инглиз тилида отларнинг аффиксация усули билан ясалиши	31
Вохидова З.Н., Асадова С.С., Файзиллоева Н.Б., Рахмонов И.М.	Замонавий тикув машиналарида динамик зўриқишнинг салбий оқибатлари ва уларни бартараф этиш йўллари	35
G'afurov M.O. Ergashev S.	Tezligi rostlanadigan elektr yuritmalaridagi dinamik jarayonlarning "matlab" dasturidagi tahlili	38
Djafarova N.A.	Turizmdagi statistik hisob usullari dunyo mamlakatlari misolida	42
Джураева З.И., Бакаева М.К.	Проблема положительного героя в рассказах редьярда киплинга о маугли	47
Djurayeva M.Z.	Jismoniy madaniyat ta'limining testlash va	52

Олимов Б.Б.	Оценка качества гидрогелей окисленного крахмала и загущающих композиций на его основе	112
Ochilova M. Ergashov M.Y.	Ta'lim samaradorligini oshirishda modul texnologiyasining o'rni	117
Pulatova M.T., Baqoeva M.K.	Kristofer marloning ruhini iblisga sotgan qahramoni faust fojeasi	119
Ravshanov O'., Rizayev B.	Buxoro muzeyida saqlanayotgan rus samovarlari tarixidan	123
Ramazonov J.J.	Sotsial intellektni shakllantirishda amaliy psixologik usullardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	126
Rasulova N.N., Umarova N.B.	Ўзбекистонда эркин иқтисодий зоналарни ташкил этиш амалиёти	129
Rasulova N.N.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mintaqaviy xususiyatlari	133
Ruziyeva G.F.	Buxoro turizm sohasi rivoji tahlili, Buxoroda turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratish zarurati va imkoniyatlari	138
Сайидова Г.	Авлоний шеърини асарларидаги айрим метафоралар таҳлили	141
Sayliyeva Z.R.	Navoiy ijodida xuroson va hirot tasviri	144
Сайфуллаев Ф.К. Хасанова Г.Дж.	Ўзбекистонда инвестиция сиёсати ва уни такомиллаштириш йўллари (Бухоро вилояти мисолида)	148
Сафаров Қ. Алимова Д.Д.	Ўзбекистонда ички туризмни ривожлантириш	152
Тожиева М.В. Хасанова Г. Дж.	Мамлакат экспорт салоҳиятини ривожлантиришни такомиллаштириш йўллари (Бухоро вилояти мисолида)	156
Фатиллоев С.З., Шодиев А.З.	Пластмасса ва полемер чиқиндиларини қайта ишлаш орқали электротехник ва қурулиш материаллар ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш	159
Хайруллаева Н. Ҳусупова Н.О'.	Хаузом "ruboiyot"ining ingliz tiliga tarjimalarida metaforik vositalarning qayta yaratilishi (e.fitzjerald va a.j.arberri)	161